

O'rta asr sharq allomalari - inson kamoloti haqida

Tuyg'unova Dinora Xoliqul qizi,
JDPI Ijtimoiy-gumanitar fanlarni
o'qitish metodikasi (ma'naviyat
asoslari) yo'nalishi 1-bosqich
magistranti

Annotatsiya: Maqolada o'rta asr sharq allomalarining inson kamolot haqidagi qarashlarining hozirgi kundagi ahamiyati yoritildi.

Kalit so'zlar: Axloq, tasavvuf, ma'naviyat, ijtimoiy-madaniy hayot, tarbiya, inson kamoloti, ma'naviy-axloqiy yetuklik.

Аннотация: В статье освещается современное значение взглядов средневековых востоковедов на человеческое совершенство

Ключевые слова: Нравственность, мистицизм, духовность, социокультурная жизнь, воспитание, человеческое совершенство, духовно-нравственная зрелость.

Annotation: The article highlights the current significance of the views of medieval oriental scholars on human perfection.

Keywords: Morality, mysticism, spirituality, socio-cultural life, upbringing, human perfection, spiritual and moral maturity.

*Ilmni egallagan, xolati o'zgargan
kishi kamtarin bo'ladi, Ilimli kishida
takabburlik bo'lmaydi.*

Mahdumi A'zam

O'rta Osiyo arablar tomonidan istilo qilinganidan bir asr keyin yangi madaniyat shakllana boshladi, uning gullab yashnashi IX_- XII asrlarga to'g'ri keladi. Butun sharqda bo'lgani kabi Movaraunnahrda ham ilm -fan va ma'rifat

sohasida o'z xizmatlari bilan dunyoga mashhur bo'lgan faylasuf va munajjimlar, matematik, fizika, tibiiyot, tarix, til va adabiyot, pedagogika sohasida ilmiy meros bilan nom qoldirgan al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Hamadoniy, Mahdumi A'zam Kosoniy shular jumlasidandir.

“Sharqda inson bilan butun borliq muammosi birgalikda, uzviy bog'liqlikda o'rganilgan. Lekin borliq nima ekanligini bilishdan oldin inson o'zi nima ekanini bilib olish masalasi birinchi o'ringa qo'yildi. Borliq abadiy, cheksiz, uning rivojlanishi uzluksiz. Inson hayoti vaqtincha bo'lsa ham u borliqdagi kamolot va buyuklikning oliy timsolidir”¹. Insoniyat hayoti davomida hamisha yetuklikka, kamolaotga intilib yashaydi. Kishi yoshlikdan yaxshi xulqli, ta'lim- tarbiyasi puxta bo'lishi darkor. Ta'lim – tarbiya jarayonida nazariy bilim bilan amaliy harakat- odat, malaka, faoliyat birlashib boradi, yetuklik shu birlashuvning darajasiga qarab yuzaga keladi. Farobiy bu haqda shunday yozadi: “Bu barcha tabiiy xislatlarni ularni oliy kamolotga yetkazish shu yoki kamolotga yaqin bo'lgan darajaga ko'tarishga xizmat qiluvchi vosita yordamida tarbiyalashga muhtojdir...”². Inson kamolaoti masalasi tasavvuf ilmida ham bosh masalalardan biri hisoblangan. Komil insonni ruhan shakllantirish muhim hisoblangan. Bunday insonlar barcha xalqni sevishi, insonlar, ayniqsa, g'ariblar, bechoralar, muhojirlar xizmatida bo'lishi, doimo xudoning borligi va birligini unutmasligi kabi so'fiylik aqidalariga ega bo'lishlari lozim. Sa'diy Sheroziy aytganidek: “Toat-ibodat tasbeh tutub, jundan eski libos kiyib, namoz o'qib yashash bilan bo'lmaydi, u Xoliq va xalqning xizmatidan boshqa narsa emas”³. Ulug' tarixiy burilishlar mafkurasini belgilagan jahoniy dinlar insoniyat taraqqiyotining muayyan bosqichida yangi ma'naviy-ruhiy zarurat, fikriy va hissiy izlanishlar ehtiyojga javob tariqasida paydo bo'lganligi sababli madaniy - ma'naviy hayotning hamma sohasini qamrab olib, ijodiy ko'tarilishi, tasavvurlar olami, aqliy va

¹ Karimov B, Norboyev O', Ziyayev F. Ma'naviyat asoslari o'quv qo'llanma. Toshkent 2021. B-207

² Zunnunov Asqar. O'zbek pedagogikasi tarixi. Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma. Tosh “O'qituvchi” 1997. B-44

³ Karimov B, Norboyev O', Ziyayev F. Ma'naviyat asoslari o'quv qo'llanma. Toshkent 2021. B-210

badiiy davomat tarziga ta'sir etib keldi. Asrlar mobaynida ilohiyatshunoslik, ilm, falsafa inson tabiatini anglab yetmoq yo'lida tinimsiz urinib kelmoqda. Sharq allomalarining insonlarni barkamollikka da'vat etuvchi g'oyalari barkamol inson tarbiyasi, jamiyatimiz ma'naviy taraqqiyotini ta'minlashda muxim ahamiyatga ega. Mustaqillikning taraqqiyot yo'li mamlakatimizda fan rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Birinchi prezidentimiz I.A. Karimov aytganlaridek: "Faqat mustaqillik sharofati o'laroq Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmat Yassaviy, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Ahmad al-Farg'oniy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zaxriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab, Burhoniddin Marg'inoniy, Maxdumi A'zam Kosoniy kabi ko'plab, nafaqat bizning madaniyatimiz, balki butun dunyo jahon sivilizatsiyasi xazinasiga salmoqli hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning nomlari va xayrli ishlari butun bo'y-basti bilan namoyon bo'ldi"⁴.

O'zbek xalqi madaniy merosiga ulkan hissa qo'shgan, naqshbandiya tariqatini bir tizimga solib, uning nazariy muammolarini ishlab chiqqan, yirik mutasavvuf va tariqat piri Maxdumi A'zam Kosoniy Sayyid Ahmat ibn Jaloliddin Xojagin Kosoniy Farg'oniy (1461-1542) hisoblanadi. Maxdumi A'zam risolalarida orifiy, ahloqiy, ma'naviy, tasavvufiy muammolar, shuningdek, davlatni boshqarish, odob-axloq oila, ot-onalar bilan farzandlarning o'zaro munosabatlari, keksalik, olim va oriflarning ijtimoiy axvoli kabi mavzular keng yoritilgan. Maxdumi A'zam risolalarida o'ziga xos falsafiy tizim mavjud bo'lib, u ilohiy va dunyoviy xayotni bir-biriga bog'lab tashkil etilgan naqshbandiya tariqatining "Diling Allox bilan, qo'ling ish bilan band bo'lsin" degan shioriga amal qiladi. Hazrat Maxdumi A'zam "Risolai Samoiya" asarlarida ushbu jasurona fikrni bayon etganlar: "Din va muqaddas kitob inson uchun, insonni ma'naviy, ahloqiy kamolotga yetaklash uchun berilgandir. Inson din uchun emas, balki din inson uchun yaratilgandir. Ana shu g'oyani rivojlantirib harakat yana inson hukmiga in'om etilgan olamni yashnatish"⁵ lozimligini uqtirib o'tilgan. Bu g'oya o'sha davrdagi siyosiy-ijtimoiy

⁴ Karimov I.A. "Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz" T. O'zbekiston, 1999. B 196-197

⁵ Nuriddinov A. Maxdumi A'zam Kosoniy. Fan, 2008. B. 8-13.

vaziyatda eng ilg'or, eng jasurona aqidalardan bo'lib, insonni yer yuzidagi tartib va osoyishtalikka shaxsan ma'sul ekanligini alohida ta'kidlovchi, insonni uning izmiga berilgan olamni yashnatishga, gullatishga, takomillashtirishga undovchi, har bir musulmonni faollikka chaqiruvchi da'vat edi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, sharq allomalarining o'sha davrda ilgari surgan g'oyalari bugungi kun uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Inson hamisha ma'naviy olamini boyitib borishi, kamolotga intilib yashashi zarur. Bu zaruriyat jamiyatni oldinga harakatlanuvchi kuch vazifasini o'taydi. Inson ongli suratda harakat qiladi va bu harakat natijasini biladi, ya'ni u kelajakni o'ylab harakat qiladi. Aniq maqsad bilan harakat qilishi insonni va jamoani yomondan saqlaydi, yaxshi ishlar qilishga yo'llaydi, unda ishonch tuyg'usini uyg'otadi. Shunday ekan, biz hozirgi yosh avlodni tarbiyalashda diniy va dunyoviy bilimlarni uyg'unlashtirgan holda o'z oldiga katta maqsadlar qo'ya oladigan, jamiyat rivoji uchun yetuklik sari intiladigan, ongida g'oyaviy bo'shliqqa o'rin qolmagan kadrlar yetishtirish masalasiga e'tibor berish zarur deb hisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov B, Norboyev O', Ziyayev F. Ma'naviyat asoslari o'quv qo'llanma. Toshkent 2021.
2. Zunnunov Asqar. O'zbek pedagogikasi tarixi. Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma. Toshkent "O'qituvchi" 1997.
3. Karimov I.A. "Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz" Toshkent "O'zbekiston" 1999 .
4. Nuriddinov A. Maxdumi A'zam Kosoniy. Fan, 2008.